

Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025-yilning 1-oktabr holatiga, faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 19,8 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ Adliya vazirligi taqdim etgan rasmiy ma'lumotlar asosida tayyorlangan



Shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil 1-oktabr holatiga, birlik	2025-yil 1-oktabr holatiga, birlik
Angor tumani	1 190	1 045
Bandixon tumani	522	480
Boysun tumani	912	707
Denov tumani	2 576	2 266
Jarqo'rg'on tumani	1 635	1 545
Qumqo'rg'on tumani	1 378	1 242
Qiziriq tumani	944	831
Muzrabot tumani	925	784
Oltinsoy tumani	901	934
Sariosiyo tumani	1 148	1 035
Termiz tumani	1 417	1 349
Uzun tumani	1 065	911
Sherobod tumani	1 522	1 369
Sho'rchi tumani	1 479	1 284
Termiz sh.	3 606	4 045

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-sentabrida 3 604 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025-yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 533 ta, sanoatda 521 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 465 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 380 tani tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni






Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik
Angor tumani	216	196
Bandixon tumani	93	83
Boysun tumani	125	75
Denov tumani	457	400
Jarqo'rg'on tumani	427	263
Qumqo'rg'on tumani	224	221
Qiziriq tumani	241	183
Muzrabot tumani	149	120
Oltinsoy tumani	228	228
Sariosiyo tumani	184	130
Termiz tumani	297	282
Uzun tumani	127	100
Sherobod tumani	231	219
Sho'rchi tumani	327	182
Termiz sh.	731	933

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2025-yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 76,5 % ni tashkil qilib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan 1,7 punktga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 244,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 64,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 117,3 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bandixon tumani (100,0 %), Uzun tumani (100,0 %), Oltinsoy tumani (99,7 %), Muzrabot tumani (98,4 %), Qiziriq tumani (98,3 %) va Boysun tumani (92,8 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 9 799,1 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 89,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,6 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rchi tumani (96,7 %), Termiz shahri (96,2 %) va Qiziriq (95,3 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 10 877,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 63,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 174,3 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Oltinsoy (92,6 %), Uzun (92,6 %) va Bandixon (91,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 28 984,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 101,9 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Bandixon (99,6 %), Oltinsoy (99,5 %), Muzrabot (99,4 %) va Uzun (99,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 19 051,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 95,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,9 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Boysun (99,5 %), Qiziriq (99,3 %), Muzrabot (99,2 %) va Sariosiyo (98,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 17 781,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 73,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Bandixon (83,9 %), Qiziriq (82,7 %), Muzrabot (80,3 %), Oltinsoy (78,9 %) va Boysun (77,2 %), tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 266,5 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 72,6 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Bandixon tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida - 100,0 %, Sariosiyo tumanida - 100,0 % va Uzun tumanida - 100,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025-yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 200,8 million AQSH dollarini yoki jami importning 94,0 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Bandixon tumanida - 100,0 %, Boysun tumanida - 100,0 %, Muzrabot tumanida - 100,0 %, Qumqo'rg'on tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida - 100,0 %, Uzun tumanida - 100,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025-yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,1 % ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,3 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,6 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,8 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0,% ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,5 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-sentabrida 26,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabrida esa 40,4 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-sentabrida nisbatan 14,0 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-sentabrida 65,0 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabrida 52,5 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-sentabrida 8,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-sentabriga kelib, bu ko'rsatkich 7,1 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-sentabrida 53,6 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabrida 65,6 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-sentabrida 43,0 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabrida 32,9 % yoki 10,1 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-sentabrida 3,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-sentabriga kelib, bu ko'rsatkich 1,5 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025-yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 50,8 % ni, savdoda - 45,3 % ni va sanoatda - 43,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda - 71,9 % ni, xizmatlar sohasida - 56,4 % ni va savdoda - 47,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda - 15,7 % ni, sanoatda - 10,8 % ni va savdoda - 6,9 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:
A. Shoberdiyev
55 451-80-00 (1)

Manzil:

